

ITALYAN GASTRONOMIYASI VA BAYRAMLARI: TIL ORQALI MADANIYATNING IFODALANISHI

Keldiyorova Sevinch Jasur qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi

Sevinchkeldiyorova2005@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada italyan gastronomiyasi va bayramlari o'rtasidagi madaniy va lingvistik bog'liqlik tahlil qilinadi. An'anaviy taomlar nafaqat moddiy boylik, balki italyan xalqining tarixiy xotirasi, diniy qadriyatlari va ijtimoiy o'zligini ifodalovchi til birliklariga aylangan. Bayramlarga xos iboralar, metaforalar va gastronomik atamalar orqali til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir lingvokulturologik nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida bayram kontekstidagi italyan leksikasining semantik, ijtimoiy va madaniy funksiyalari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *italyan gastronomiyasi, bayramlar, til, madaniyat, lingvokulturologiya, italyan iboralari, metafora.*

ITALIAN GASTRONOMY AND FESTIVITIES: CULTURAL EXPRESSION THROUGH LANGUAGE

Abstract *This article analyzes the cultural and linguistic connection between Italian gastronomy and traditional festivities. Traditional dishes are not only material assets but have also evolved into linguistic units that reflect the historical memory, religious values, and social identity of the Italian people. Through idioms, metaphors, and gastronomic terms associated with holidays, the mutual influence between language and culture is examined from a linguocultural perspective. The study reveals the semantic, social, and cultural functions of Italian vocabulary in the festive context, based on modern linguistic approaches.*

Keywords: *Italian gastronomy, festivities, language, culture, linguoculturology, Italian idioms, metaphor.*

Kirish

Italyan gastronomiyasi dunyo bo'yicha mashhur bo'lib, uning boyligi nafaqat taomlarning xilma-xilligida, balki ularning orqasida yotgan tarixiy, madaniy va diniy qatlamlarda namoyon bo'ladi. Har bir regional taom — bu nafaqat retsept, balki avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy meros, hayot falsafasi va ijtimoiy xotiradir.

Shu bilan birga, bayramlar doirasida tayyorlanadigan an'anaviy ovqatlar ham italyan milliy identitetining muhim ifodalaridan biridir.

Gastronomik an'analar nafaqat ovqatlanish marosimida, balki italyan tilida ham o'z ifodasini topgan. Bayramlarga xos so'z birikmalari, iboralar va atamalar o'zida muayyan tarixiy ma'lumotlarni, ijtimoiy qadriyatlarni va madaniy kodlarni mujassam etadi. Masalan, "Natale con i tuoi, Pasqua con chi vuoi" kabi iboralar nafaqat bayram an'anasini, balki oilaviy qadriyatlarni ham yoritadi¹.

Ushbu maqolada italyan gastronomiyasi va bayramlari orqali madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Maqsad — an'anaviy ovqatlar va bayram iboralar orqali italyan xalqining madaniy identiteti va tilidagi ifoda vositalarini aniqlash hamda bu vositalarning lingvokulturologik ahamiyatini ochib berishdir.

Metodologiya

Ushbu maqola italyan gastronomiyasi va bayramlari orqali madaniy va lingvistik hodisalarning qanday ifoda topishini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida lingvokulturologik yondashuv asos qilib olindi, chunki bu yondashuv til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Til birliklari — bu nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni uzatuvchi vosita sifatida qaraladi.

Tahlil uchun italyan tilidagi bayramlarga oid gastronomik iboralar, marosim taomlari nomlari va ularga tegishli leksik birliklar tanlab olindi. Bunday iboralar orqali italyan xalqining qadriyatlari, ijtimoiy xotirasi va bayramlarga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, italyan oshxonasiga oid terminlarning boshqa tillarda qanday o'zlashtirilgani, xususan, rus va ingliz tillaridagi adaptatsiyasi ham o'rganildi. Bu holat italyan gastronomiyasi orqali tilga madaniy ta'sir kuchli ekanini ko'rsatadi.

Tarixiy kontekstni hisobga olgan holda, o'rta asrlar Italiyasidagi ziyofat marosimlariga doir materiallar tahlil qilindi. Ushbu tarixiy ma'lumotlar orqali ovqatlanish marosimi atrofidagi til unsurlari va ijtimoiy struktura o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi.

Umuman olganda, tadqiqot sifatida tanlangan matnlar asosida italyan tilining bayram kontekstida qanday semantik va madaniy yuklamalarga ega bo'lishi ko'rsatiladi. Til, bu holatda, faqatgina ifoda vositasi emas, balki madaniyatning o'zagi sifatida tahlil qilinadi.

Natijalar va Tahlil

Italyan gastronomiyasi va bayramlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nafaqat madaniy, balki lingvistik jihatdan ham chuqur ildiz otgan. Bayramlar davomida tayyorlanadigan

¹ Porciani, I. (2022). Tavolate e territorio. Feste, cibo e comunità in Italia dal secondo dopoguerra a oggi. *Storicamente*, 18, 1-25.

an'anaviy taomlar va ular bilan bog'liq iboralar italyan xalqining tarixiy xotirasi, ijtimoiy qadriyatlari va tiliga qanday singib ketganini ko'rsatadi.

Masalan, Asti shahrida har yili o'tkaziladigan Festival delle Sagre bayrami davomida har bir mintaqqa o'zining an'anaviy taomini (agnolotti, bollito misto, tajarin) va unga oid mahalliy atamalarni taqdim etadi. Bu festival gastronomik xilma-xillik bilan birga, mintaqaviy til variantlarining saqlanib qolishiga ham xizmat qiladi².

Italyan tilida oziq-ovqat bilan bog'liq ko'plab idiomatik iboralar mavjud. Masalan, "avere le mani in pasta" iborasi bevosita oshxona faoliyatiga oid bo'lsa-da, ma'nodosh tarzda "biror ishga chuqur aralashish" degan ma'noni bildiradi. Bu ibora til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqaning yaqqol namunasidir³.

Shuningdek, "Natale con i tuoi, Pasqua con chi vuoi" degan xalq iborasi italyanlar orasida keng tarqalgan bo'lib, u bayramlarda oilaviy qadriyatlarning ustuvorligini ifodalaydi. Bu ibora faqat ijtimoiy normalarni emas, balki diniy va madaniy qadriyatlarni ham aks ettiradi⁴.

Avvalgi tadqiqotlarimizda ham italyan gastronomik terminlarining rus va ingliz tillarida qanday semantik va fonetik o'zgarishga uchraganini o'rganilgan edi. Espresso, pasta, tiramisu kabi so'zlarning xalqaro leksikaga aylangani italyan oshxonasining tilga bo'lgan global ta'sirini namoyish etadi⁵.

Bundan tashqari, Italiya hukumati 2023 yilda italyan oshxonasini UNESCO'ning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritish tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbus

² La Cucina Italiana. (2023). *Italian cuisine: UNESCO heritage candidacy is official*. Retrieved from <https://www.lacucinaitaliana.com/trends/news/italian-cuisine-unesco-heritage-candidacy-is-official>

³ Italy Segreta. (2022). *Speak the way you eat: 22 food-based Italian idioms to add to your dictionary*. Retrieved from <https://italysegreta.com/speak-the-way-you-eat-22-food-based-italian-idioms-to-add-to-your-dictionary>

⁴ Verbal Planet. (2020). *Italian cultural festivals: Learn Italian through traditions*. Retrieved from <https://www.verbalplanet.com/learn-italian/blog/italian-cultural-festivals-learn-italian.asp>

⁵ Келдиёрова, С. Ж. (2025). ПРОНИКНОВЕНИЕ ИТАЛЬЯНСКИХ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ГЛОБАЛЬНУЮ ЛЕКСИКУ И ИХ ОСВОЕНИЕ. *Technical science research in Uzbekistan*, 3(2), 88-97.

italyan gastronomiyasining nafaqat madaniy, balki tilshunoslik ahamiyatini ham tasdiqlaydi⁶.

Tarixiy manbalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'rta asrlar Italiyasida ziyofat marosimlari qat'iy til me'yorlari asosida boshqarilgan — har bir ishtirokchining joylashuvi, so'zlash tartibi va hatto qaysi navbat bilan ovqat tortilishi ham ijtimoiy pozitsiyani bildirgan⁷.

Shu tarzda italyan gastronomiyasi va bayramlari, til bilan uyg'unlashgan holda, milliy xotiraning bir ko'rinishiga aylanadi. Til bu yerda nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi va uzatuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi⁸.

Muhokama

Tadqiqot natijalari italyan gastronomiyasi va bayramlarining til orqali ifodalanishi chuqur madaniy ildizlarga ega ekanini ko'rsatdi. An'anaviy taomlar va ularga oid iboralar italyan xalqining ijtimoiy ongida muhim ramz sifatida shakllangan. Ular faqat retsept yoki bayram atributi emas, balki til orqali uzatiladigan tarix, xotira va qadriyatlar tizimidir.

Bayram kontekstida ishlatiladigan iboralar — masalan, “Natale con i tuoi, Pasqua con chi vuoi” — oilaviylik, diniy an'ana va ijtimoiy munosabatlar kabi konseptlarni bevosita til birliklari orqali ifodalaydi. Bunday holatlar til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni lingvokulturologik nuqtayi nazardan yoritishga imkon beradi.

Shuningdek, gastronomik metaforalar italyan tilida ko'p uchraydi: “avere le mani in pasta”, “essere dolce come il miele” yoki “pane quotidiano” kabi iboralar orqali kundalik hayotdagi munosabatlar, hissiyotlar va sotsial rollar ifodalanadi. Bu iboralar semantik kengayish va madaniy kodlar asosida shakllanadi. Lotmanning semiosfera nazariyasi asosida qaraganda, bunday til birliklari madaniyatning ichki strukturalarini ham tashkil qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat — italyan gastronomik atamalarining boshqa tillar, xususan rus va ingliz tilidagi adaptatsiyasi. Espresso, pasta,

⁶ La Cucina Italiana. (2023). *Italian cuisine: UNESCO heritage candidacy is official*. Retrieved from <https://www.lacucinaitaliana.com/trends/news/italian-cuisine-unesco-heritage-candidacy-is-official>

⁷ Benporat, C. (2001). *Feste e banchetti. Convivialità italiana fra Tre.*

⁸ Montanari, M. (2010). *Let the Meatballs Rest: And Other Stories about Food and Culture*. Columbia University Press.

tiramisu kabi so‘zlarning global leksikaga kirib borishi italyan madaniyatining xalqaro miqyosda ham til orqali tarqalayotganini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalar tahlili asosida aniqlanishicha, o‘rta asrlardagi ziyofat marosimlari ham qat’iy til va ijtimoiy protokollarga asoslangan. Ovqatlanish tartibi, ishtirokchilarning nutqi va joylashuvi jamiyatdagi ierarxiyani bildirgan. Bu madaniy voqeliklar til orqali me’yorlashgan va generatsiyalangan.

Shunday qilib, italyan gastronomiyasi va bayramlari tilda nafaqat ifoda topadi, balki tilni madaniy kod sifatida shakllantiradi. Til bu holatda informativ vosita emas, balki madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi mexanizmga aylanadi. Tadqiqot natijalari boshqa tillar va madaniyatlar uchun ham qiyosiy tahlil nuqtasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Italyan gastronomiyasi va bayramlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik milliy madaniyat, tarixiy xotira va til birliklari orqali chuqur ifodalanadi. Taomlar nafaqat moddiy boylik, balki lingvokulturologik qadriyat sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bayram taomlariga oid iboralar, marosimlarga xos til birliklari, idiomatik ifodalar va tarixiy nutq uslublari italyan xalqining ijtimoiy va madaniy o‘zligini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, italyan oshxonasining xalqaro leksikaga kirib borishi uning global miqyosdagi til va madaniyatga bo‘lgan ta’sirini tasdiqlaydi. Til bu holatda faqat aloqa vositasi emas, balki madaniyatni ifodalovchi, saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Badii, M. (2010). Cibo in festa fra tradizione e trasformazioni. Pratiche alimentan tradizionali in un contesto mezzadrile. Milano: Franco Angeli.
2. Benporat, C. (2001). Feste e banchetti. Convivialità italiana fra Tre.
3. Porciani, I. (2022). Tavolate e territorio. Feste, cibo e comunità in Italia dal secondo dopoguerra a oggi. Storicamente, 18, 1-25.
4. Capatti, A., & Montanari, M. (2003). Italian Cuisine: A Cultural History. Columbia University Press.
5. Montanari, M. (2010). Let the Meatballs Rest: And Other Stories about Food and Culture. Columbia University Press.
6. Дичковская, Е. А. (2021). Реализация культурного концепта «праздник» и его историко-культурного кластера в итальянской культуре.
7. Драчева, Е. Л., & Христов, Т. Т. (2015). Гастрономический туризм: современные тенденции и перспективы. Российские регионы: взгляд в будущее, (3 (4)), 36-50.

8. Harper, D., & Faccioli, P. (2010). The Italian way: food and social life. University of Chicago Press.

9. Liberati, M. (2010). The Basic Art of Italian Cooking: Holidays and Special Occasions. art of living, PrimaMedia, Inc..

10. Parasecoli, F. (2004). Food culture in Italy. Bloomsbury Publishing USA.

11. Келдиёрова, С. Ж. (2025). ПРОНИКНОВЕНИЕ ИТАЛЬЯНСКИХ ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ГЛОБАЛЬНУЮ ЛЕКСИКУ И ИХ ОСВОЕНИЕ. Technical science research in Uzbekistan, 3(2), 88-97.

12. Verbal Planet. (2020). Italian cultural festivals: Learn Italian through traditions. Retrieved from <https://www.verbalplanet.com/learn-italian/blog/italian-cultural-festivals-learn-italian.asp>

13. Italy Segreta. (2022). Speak the way you eat: 22 food-based Italian idioms to add to your dictionary. Retrieved from <https://italysegreta.com/speak-the-way-you-eat-22-food-based-italian-idioms-to-add-to-your-dictionary>

14. La Cucina Italiana. (2023). Italian cuisine: UNESCO heritage candidacy is official. Retrieved from <https://www.lacucinaitaliana.com/trends/news/italian-cuisine-unesco-heritage-candidacy-is-official>